

# **“SOLIQCHI - KO’MAKCHI” TAMOYILI ASOSIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR YUZASIDAN OLTIARIQ TUMAN SOLIQ INSPEKSIYASI BOSHLIG’INING HISOBOTI**

2023-yil 1-yanvardan boshlab soliq qonunchiligiga qator o’zgartirishlar kiritildi. Xususan, aylanmadan olinadigan soliq stavkalari soliq to’lovchilarning barcha toifalari uchun 4% miqdoridagi yagona stavkani belgilagan holda bixillashtirildi.

Bundan tashqari, 2023-yil 1-yanvardan boshlab aylanmadan olinadigan soliqni qat’iy belgilangan summada to’lash tartibi joriy etildi.

Shuni ta’kidlash joizki, mazkur tartib bo’yicha soliq to’lash ixtiyoriy hisoblanadi. Ushbu tartibni tanlash tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi yengilliklarni yaratib beradi:

- soliq organlariga moliyaviy hisobotlar va aylanmadan olinadigan soliq hisobotini taqdim etish majburiyati yuzaga kelmaydi;
- bank hisobvarag’idan dividend tarzida yechib olinadigan mablag’lar soliqqa tortilmaydi;
- tovarlar hisobini yuritish talab etilmaydi.

Ta’kidlash joiz, ayni paytda Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlar har tomonlama qo’llab-quvvatlanmoqda. Binobarin, Yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo’yishlari, o’z iqtidori va salohiyatini to’liq namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, ularning bandligiga ko’maklashish, doimiy ish bilan hamda munosib daromad olishini ta’minalash borasida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida “Yoshlarning bandligiga ko’maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta’minalashga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Prezident farmoni (PF-61-son, 26.04.2023 y.) qabul qilindi.

Farmonga ko’ra, tadbirkorlarning 2023-yil 1-maydan boshlab 2025-yil 1-yanvarga qadar ish beruvchilarga (budget tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg’armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo’lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to’lovchilar bundan mustasno) ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to’langan ijtimoiy soliq summasi Davlat budgetidan to’liq qoplab berilishi belgilandi.

Bunda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzlusiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan yettinchi oydan boshlab qoplab beriladi.

Albatta, qiyinchiliklarga uchragan tadbirkorlarga soliq xizmati organlari “Soliqchi-ko’makchi” tamoyili asosida xizmat ko’rsatishni davom ettiradilar.

Ta’kidlash joiz, ayni kunlarda Oltiariq tuman soliq inspeksiyasi xodimlari tomonidan tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, muammolar o’rganilib ijobiy hal etish choralar ko’rilmoxda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bo’lgan qator yo’nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko’rsatilmoqda.

Xususan, 2023-yil may oyi davomida Oltiariq tuman soliq inspeksiyasi tomonidan 36 ta tadbirkorlik subyektlarini qiynayotgan muammolar o’rganildi. Mazkur jarayon davomida ko’maklashish zarur bo’lgan 24 ta tadbirkorlik subyektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo’llash tartibini tushuntirish, ortiqcha to’lovlarini qaytarish kabi masalalar yuzasidan amaliy yordamlar ko’rsatildi.

Biz, soliq idoralari xodimlari bundan buyon ham, albatta, Prezidentimiz belgilab bergenlaridek, tadbirkorga maslahatchi, ko’makchi va yaqin hamkor sifatida faoliyatimizni davom ettiramiz.

 Inspeksiya boshlig'i

I.Sultonov

2023-07-07 17:43:41

1 / 1